

keledi. Inonaciya sóylewshiniń sózine belgili dárejede stillik boyaw beriliwinde áhmiyetli qural esaplanadı. Joqarıdaǵı kórkem kontekstlerde de **“Shól táńirisi-atań, Qurǵalıq-eneń”**, metaforalasqan qatarlarınıń intonaciyası úyrenilgende tómendegi mánilerdiń - ańlaw, ótinish, jalınısh, eskertiw, usınıs, xabarlandırıw, tańlanıw, buyırıq hám t.b. lar ańlasılǵanıń kóremiz. I. Yusupov poeziyasınıń kórkem tilinde qollanıw júrgen metaforalar hár biri óziniń tiykarǵı mánisine sáykesh hám stillik jaqtan úylesip qollanıw kelgen. Kórkemlikti, tásirshelikti arttırıw ushın kórkem sóz sheberiniń sóz tańlay alıwına qaray qálegen sóz

Adebiyatlar

1. Абдуллаев Ш.Д. Таржима асарларда фразеологизмлар семантикаси (Т.Қайипбергенов асарларининг ўзбекча таржимаси асосида). Филол. Фанлари номзоди. ... дис. –Тошкент: 2007.
2. Berdimuratov E. Qaraqalpaq ádebiy tili. Leksikologiya. –Nókis: 1998.
3. Кенесбаев С.И.Қазақ тілі қалыптанған сөз топтары (қос сөздер, идиоміңдер мен фразалар). Автореф. дисс. ...-д-ра филол. Наук. - Алма-ата: 1944.
4. Раҳматуллаев Ш.У. Основные грамматические особенности образных глагольных фразеологических единиц современного узбекского языка: Автореф. дисс...канд. филол. Наук. – Москва: 1952.
5. Ефимов А.И. О языке художественных произведений. – Москва: 1954. - С.181-216.
6. Қожахметова Х. Фразеологизмдердиң көркем әдебиетте қолданылыўы.-Алматы: 1972, 54,58-6.
7. Иўлдашов Б. Фразеологик услубият асослари. – Самарқанд: 1999. «СамДУ нашри» 200-б.
8. Yusupov I. poemaları. Dala ármaralı. –Nókis: “Qaraqalpaqstan”, 1974.

REZYUME. Maqolamizda tilimizdagi lingvistik birliklardan biri metaforalarning badiiy tildagi qo'llanilish hodisasiga bag'ishlangan bo'lib, shoir I.Yusupov asarlarida qo'llanilishdagi so'z ma'nolarining ta'sirchanlikdagi o'ziga xos xususiyatlariga bag'ishlangan ayrim tafsilotlarimiz havola etiladi.

РЕЗЮМЕ. В статье одна из языковых единиц нашего языка посвящена событию употребления метафоры в художественном языке. В произведениях И.Юсупова приводятся некоторые подробности, касающиеся особенностей значения слова в употреблении.

SUMMARY. In article, one of the linguistic units of our language is devoted to the event of the use of metafora units in an artistic language. In the works of I' Yusupov, some details are given concerning the peculiarities of the meaning of the word in use.

QORAQALPOG'ISTON TURKMANLARI TILINING O'RGANILISHI TARIXI

M.A.Babayeva – o'qituvchi

A.Qutibaeva – magistr

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: o'zbek tili, qoraqalpoq tili, turkman tili tarixi, bilingvizm masalalari.

Ключевые слова: узбекский язык, каракалпакский язык, история туркменского языка, проблемы двуязычия.

Key words: the Uzbek language, the Karakalpak language, history of the Turkmen language, problems of bilingualism.

Har bir til uni ishlatadigan xalqlar bilan ajralmas tarixga ega. Shu qatorda turkman tilining ham urug' va shevalarida adabiy tildan farq qiluvchi til xususiyatlari mavjud. Turkman tili turkiy tillar oilasiga mansub bo'lsa-da, genetik jihatdan oltoy va ural-oltoy tillari bilan bog'liq. Olimlarning fikricha, turkiy tillar bilan oltoy va ural-oltoy tillari o'rtasida tipologik o'xshashlik bor va bundan tashqari oltoy tillari oilasiga turkiy-mo'g'ul, tungus-manjur guruhlaridan tashqari koreys va yapon tillarini ham qo'shish mumkin deb hisoblaganlar. Shunday qilib, turkman tili tarixining eng dastlabki davrlari faqat turkiy tillarda emas, balki oltoy va ural-oltoy tillari doirasida o'rganish tavsiya etiladi.

Turkman tili va hind-yevropa tillari orasida ham ma'lum yaqinlik borligi avvaldan ma'lum. Hatto, turkman tili va sanskrit tili o'rtasida ham olimlar bir nechta umumiy jihatlarni ko'radi. Masalan: “Men, kim” kabi kishilik olimshlarning, “t. chapady”, “chapati” [1:193]. kabi bir nechta so'zning o'xshashligi bu gapni tasdiqlaydi [2:9].

XIX asrning oltmishinchi yillarida O'rta Osiyoga qilgan sayohatlari natijasida A.Vamberi ko'plab turkman qabilalari – cho'vdurlar, salirlar, go'klanglar hamda takalarning, shajaralarini yozgan. A.Vamberining fikricha, “turkman” so'zi ikki qismdan, “türk” va “men” [3:8]. so'zlaridan iborat bo'lishi kerak deb ta'kidlagan.

Xalq orasida **turkman so'zining** türk va iman – imonli turk, (tir we keman) [3:11] kamon va o'q so'zlari bilan bog'liq deb hisoblaganlar.

Turkman tili – Turkmanistonning rasmiy tili hisoblanadi. Hozirgi paytda asosan, Turkmanistonda, O'zbekiston, Tojikiston, Qozog'iston respublikalarida, Rossiya Federatsiyasining Stavropol o'lkasida, Afg'oniston, Turkiya, Eron va boshqa mamlakatlarga tarqalgan. Turkman tili g'arbiy o'g'uz qabila (urug') tillari negizida shakllangan, lekin rivojlanish jarayonida qipchoq guruhidagi turkiy til-

öziniń mánisine, stillik ózgesheliklerine, ekspressiv hám emotsionallıq boyawlarına iye bolıwı, qollanıwda esapqa alınadı.

Juwmaqlap aytqanda, poetikalıq dóretpelerde jeke stillik metaforalardı payda etiwde kórkem sóz sheberiniń dóretilshilik izleniwleri, tapqırlıǵı menen ustalıǵı sheshiwshi rol atqaradı. Onda shayırdıń novatorlıq sóz tańlaw sheberligi, originallıǵı, navatorlıǵı, batırlıǵı qusaǵan poetikalıq sapalar, turmislıq tájiriybeleri úlken xızmet atqaradı. I.Yusupovtıń poeziyasınıń kórkem stilistikalıq tili bunıń ayqın dálili bola aladı.

larga xos xususiyatlarga ham ega bo'lgan. Leksikasida arab, fors, rus tillaridan o'zlashgan so'zlar uchraydi. Stavropoldagi turkman tili lahjasi **truxmen tili** deb ataladi.

Asosiy lahjalari: taka, yovmut, ersari, go'klan, sariq, salir, chovdurlardir.

Buni turkman xalqining buyuk shoiri, milliy iftixori, turkman adabiyotining asoschisi Maqtumquli Firog'iyning “Döker bolduk yashymyz” sherida ham k'orishimiz mumkin.

Türkmenler baglasa bir yere bili,

Gurudar Gulzumi, der'ayy — Nili.

Teke, yomut, gökleñ, ýazyr, alili,

Bir döwlete gulluk etsek başimiz [4:42].

deb, shoirimiz turkman xalqining katta urug'larini birma-bir sanab o'tgan.

Hozirgi paytda ham bu urug'lardan turkmanlar ko'p joylashgan To'rtko'l tumanining bir qancha qishloqlarida, jumladan, Sarymaý, Nöküs, Meşikli, Gulatow, Bezirgen, Akgamyş, Haramçukur (Aramçukur), Kelteminar, Akbaşly, Montuk, Emirabat qishloqlarida, turkman xalqiga mansub ata urug'i, Ullubog', Tozabog', Qirqqiz kabi qishloqlarida esa igdir, gökleñ, düyeji kabi qabila vakillari yashaydi.

Ma'lumki, XVIII asr va XIX asr boshlarida markazlashgan davlatning yo'qligi sababli turkmanlar urug' va qabila kabi alohida guruhlariga bo'linib, hozirgi Turkmanistonning turli hududlariga tarqalib ketgan. Aholining tarqoq, iqtisodiy va siyosiy jihatdan yakkalanib qolganligidan foydalangan podshohlar, talonchilik, bosqinchiliklarini davom ettirdilar. Shunday qilib, Balkanda yashovchi ata turkmanlar 1833-1834-yillarda Turkmanistonning janubiy viloyatlariga (Gizilarbat, Tejen, Saragt) ko'chib ketishga majbur bo'lishdi. Keyinchalik, 1856-yilda (1275-yil eski hisob bo'yicha) turli noroziliklarga uchragan turkman qabilalari hozirgi

Qoraqalpog'iston ASSRning To'rtko'l, Beruniy (Şapbaz) tumanlariga ko'chirildi [5:10].

O'zbekiston Respublikasining ajralmas qismi bo'lgan Qoraqalpog'iston Respublikasida bir nechta millat vakillari bir oila vakillari kabi istiqomat qiladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi aholisining asosiy qismini turkiy xalqlar qoraqalpoqlar, o'zbeklar, qozoqlar va turkmanlar tashkil qiladi.

Bu xalqlarning uzoq yillardan beri birga yashashi, turmush tarzi va milliy an'analarining o'xshash bo'lishi, ularni tillarining o'zaro ta'siri, yaqinlashuvi va gullab-yashnashiga sabab bo'lgan. Qoraqalpog'iston turkmanlari asosan, janubiy tumanlaridan To'rtko'l, Beruniy, Ellikqal'a, Amudaryo, shimoliy tumanlaridan Sho'manay, Qo'ng'iro't, Taxiato'sh, Xo'jayli'da yashaydi.

Hozirgi vaqtda Qoraqalpog'istonda yuz mingdan ko'proq turkmanlar istiqomat qiladi. Ularning ayrim etnik guruhlari ata, igdir, arabachi va yovmutlardir. Qoraqalpog'istonning To'rtko'l, Beruniy, Ellikqal'a, Sho'manay, Qo'ng'iro't, Taxiato'sh Xo'jayli va Amudaryo tumanlarida o'zbek, qoraqalpoq, qozoq xalqlari bilan birgalikda yashab kelmoqda.

To'rtko'l, Ellikqal'a tumanlari aholisi Janubiy Xorazm shevasida gaplashadi. Ularning tili Xorazm viloyatining Hazorasp, Xonqa va Xiva tumanlarida yashovchi aholi tiliga yaqin. Ayni chog'da Beruniy, Amudaryo tumanlari aholisining tili Xorazm viloyatining Gurlan tumanida istiqomat qiluvchilar tiliga yaqin [6:37].

Qoraqalpog'istonda istiqomat qilayotgan turkmanlar orasida aralash ikki tillilik juda keng tarqalgan. Qoraqalpog'iston turkmanlari bilingvistik xususiyatga ega. Janubiy tumanidagi turkmanlar o'zbek tilini to'la o'zlashtirgan. Bu holat turkmanlarning asrlar davomida ayni hududda o'zbeklar bilan aralash yashab kelayotganligi mahsulidir. Shimoliy tumanlardagi turkmanlar to'g'risida bunday deyish qiyin. Ularning ko'plari o'zbek (Xo'jayli tumanida), ba'zilari esa qoraqalpoq, qozoq tillarini muayyan o'zlashtirgan bo'lsalar-da, ammo shu tillarda erkin mulqotga kirisholmaydilar [7:98].

Aralash bilingvizimga ikki til elementlarining aralashtirilishi xosdir. Ushbu elementlarning uzoq va faol qo'llanilishi esa ularning ikkinchi til tarkibiga butunlay singib ketishiga olib keladi.

Turkman tilining o'rganilishi erta davrlardan boshlangan. Buni XI asrning mashhur olimi Mahmud Koshg'ariyning "Devonu-lug'otit turk" asarida shunday yoziladi: "o'g'uz turklarning bir qabilasi. O'g'uzlar – turkmanlardir. Ular yigirma ikki urug'dir; ularning har birining maxsus belgilari, mollariga xos tamg'alari bo'lgan va shu tamg'alarga qarab ajratilgan. Birinchisi va boshliqlari qiniqlardir" [8:89], deb barcha qabilalarning nomlari va tamg'alari haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Lug'atda o'sha davr turkmanlari tilining fonetik xususiyatlari ham, leksik xususiyatlari ham, grammatik xususiyatlari ham maqol, matal, she'rlar orqali batafsil bayon etilgan.

XVI asrning atoqli tarixchisi Rashid ad-Din ham turkmanlar aslida o'g'uzlar bo'lib, ularning Movarounnahrda ko'chib o'tishi va mahalliy xalq bilan aralashib ketishi natijasida yuzlari o'zgargan o'guzlar deb ta'kidlaydi [9:85].

Qoraqalpog'iston turkmanlari tilining o'rganilish tarixiga nazar tashlasak, turkiyshunos N.A.Baskakovning ilmiy asarida bu yerda turkmanlar tiliga oid ilk ma'lumotlarni ko'ramiz. N.A. Baskakovning "Qoraqalpoq tili" ilmiy asarining birinchi jildida turkman tilidan to'plangan qimmatli materiallar bir qator ilmiy ishlar manbai hisoblanadi.

N.A.Baskakov 1930-1935-yillarda To'rtko'l va Xo'jayli tumanlarida yashagan turkmanlar tilidan dialektologik matnlar yozib oladi. To'rtko'l tumaniga tegishli matnni Jalg'as Tanymbay uly, qazaqdan "Aldar kose" ertagini hamda Kandjan Abul-ogly, turkmendan podsho va uning ikkita bolalari haqidagi ertakni yozib olgan. Bu

dialektologik matnlar uning "Qoraqalpoq tili" ilmiy asarining birinchi jildida berilgan [10:304].

Avvalo, N.A.Baskakov turkiy tillarni qiyosiy o'rganish uchun Qoraqalpog'istonda yashovchi turkmanlar tilidan qimmatli materiallar to'playdi. O'sha davrda yashagan turkmanlar tilida: *baş, beden, bedew, gay'ry, gurluş, degirmen, dünyä* kabi so'zlar Janubiy va Shimoliy tumanlarida yashovchi turkmanlar tilida uchraydi.

Hozirgi paytda: tüwi, gapy, erte, gelyes, gidyes, baryas so'zlari shimoliy tumanlarda yashovchi turkmanlar tilida qo'llaniladi.

Bürünç, çeperi, işik, ertir, ileri, arka so'zlari esa janubiy tumanlarida yashovchi turkmanlar tilida uchraydi.

M.Hydyrow, Z.Muhamedowa, H.Der'ayew, E.Gajarowa, Ata Annanurov, T.Guzycy'ew, S.Bayly'ew, J.Amansary'ew B.We'isow N. Narti'yew S.Ahally, professor M.Y.Hydyrow, Y.Öwezow kabi tilshunos olimlar turkman tili tarixiy fonetikasining va tarixiy grammatikasining rivojlanishiga o'zlarining hissalarini qo'shgan. Bundan tashqari J.Amansary'ew va N.Narti'yewlar turkman tilining dialektologiyasi bo'yicha tadqiqotlar olib borishgan.

Qoraqalpog'istonda yashovchi turkmanlar o'zbek, qoraqalpoq, qozoq va hokazo xalqlar bilan birga yashaganligi sababli, tillarning o'zaro ta'sirida bir-birining lug'at boyligini boyitishi tabiiy holdir.

Bu tilning ijtimoiy hodisa ekanligiga bog'liq. Shu munosabat bilan Qoraqalpog'istondagi turkman tilining tovush tizimi, lug'at tarkibi, morfologik tuzilishini turkman adabiy tiliga qiyoslashda bir qancha xususiyatlar mavjud. Bunday xususiyatlar S.Arazquliyevning "Garagalpogystan ASSR-nyñ Dörtgöl rayonındaky türkmen gepeşikleri" (Aşgabat, 1961) tadqiqot ishida o'z ifodasini topgan. S.Arazquliyevning mazkur ishining kirish qismida Qoraqalpog'istondagi turkmanlar ikkita dialektga ya'ni urug'ga tegishli bo'lganligi sababli, ularning til o'zgaraliliklari va yaratilish tarixi bir xil bo'lmaganligi uchun: 1. qoraqalpoq tilining ta'siri bo'lgan turkman nutqi. 2. o'zbek tilining ta'siri bo'lgan turkman nutqi, deb ikkita guruhga ajratgan [5:12]. Qoraqalpog'istonning To'rtko'l tumanidagi turkman nutqlari ham Turkmaniston hududidan tashqaridagi turkmanlar tilini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqot ishlaridan biri hisoblanadi. Amudaryoning shimolida yashovchi turkmanlar uchun ularning til xususiyatlarini va o'tmish tarixini kuzatish eng qiziqarli va muhim masalalardan biridir. Bundan tashqari bu tadqiqot ishida turkman tilining fonetikasi, morfologiyasi va leksikasi bo'yicha yetarlicha ma'lumotlar keltirilgan va bir qancha matnlar kiritilgan.

Shuningdek, S.Arazquliyev "Garagalpogystan türkmenleri nakyllary" (1968) "Garagalpogystan türkmenleriniñ azyk-nahar atlary" kabi bir qator ilmiy ishlar va maqolalar muallifi.

Bir til va boshqa til o'rtasida umumiylik va o'xshashlik mavjudligi, tillarning qarindosh tillar ekanligidan va bu tillar o'rtasida (yaqinlik) bo'lganidan dalolat beradi. Tillarning o'zaro ta'siri va aloqasi bir xil bo'lmaydi. Ularning bir-biriga ta'siri mavjud til egalarining tarixiy, ijtimoiy, lisoniy etnik va boshqa aloqalariga bog'liq holda bevosita yoki bilvosita bo'lishi mumkin [11:5].

Har qanday ikki tillilikda ikki tilning o'zaro munosabati ko'zga tashlanadi. Agar ikki tilli shaxs bir tildan ikkinchi tilga erkin tarjima qila olsa yoki bir tushunchaga uning ongida ikkita so'z to'g'ri kelsa, u aralash ikki tillilik (L.V.Shcherba atamasi) deb, agar ikki tilli kishi ongida har ikkala til alohida-alohida sistemalar sifatida namoyon bo'lsa yoki shaxs har ikkalasida ham ona tilidagidek aloqa qila olsa, sof ikki tillilik deb yuritiladi [12:83].

2006-yilda A.Arazov "Garagalpogystan türkmenleriniñ gepeşik dili bilen garagalpak diliniñ özara täsiri we interferensiya hadysasy" nomli nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Ilmiy ishdagi farq va

o'xshashliklar, qoraqalpoq va turkman tillari fonetikasi va leksikasi, qoraqalpoq va turkman tillaridagi alohida so'zlarning semantikasi, ayrim frazeologizmlarning xususiyatlari bilan o'xshash va farqli tomonlari, shuningdek, tadqiqotda, qoraqalpoq va turkman tillarining o'zaro ta'sirini qiyoslash usuli bilan aniqlanadi va bu ikki til tarixini chuqur o'rganishga qaratilgan muhim ilmiy ishlardan biri hisoblanadi.

Bundan tashqari yana bir muhim ish haqida aytib o'tishimiz joiz. T.Bayjanov "Qoraqalpog'iston maktablari-da turkman tilini kompetensiyaviy yondashuv asosida o'qitishning pedagogik tizimi" nomli ilmiy ishida turkman tilini o'qitishda shaxsning motivatsion va irodaviy xususiyatlarining lingvodidaktik tamoyillari, multimedia, illyustrativ-intensiv usullar va xalqaro baholash dasturi (PI-SA) bo'yicha integratsiyalashgan texnologiya asosidagi mashq va topshiriqlardan mutanosib foydalanish samaradorligini tadqiq qildi.

O.Chommadov ham "Türkmen diliniň ata dialekti" (1975) nomli ilmiy asarida Qoraqalpog'istonda yashagan turkmanlarning ona tiliga oid materiallarni ham o'rgangan. Uning izlanishi natijasida "Türkmen diliniň ata dialektiniň kábir morfologik áyratynlyklary" va "Türkmen diliniň

ata dialektiniň kábir leksik áyratynlyklary" nomli ilmiy maqolalari chop etilgan. Keyinchalik, 1975-yilda fan nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyasini himoya qildi [13:2].

Qoraqalpog'istonda o'zbek va qoraqalpoq tillari davlat tillari hisoblansa ham, mamlakatimizning odilona siyosati tufayli hech qaysi kam sonli xalq vakillarining tili kamsitilmaydi. Jamiyatda o'sha tilning ijtimoiy xizmatlari qo'llab-quvvatlanadi va til taraqqiyoti uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berilgan. Kam sonli millat vakillarining ham o'z ona tillarida o'rta va oliy ma'lumot olishlari uchun imkoniyatlar mavjud [14:109].

Xulosa qilib aytganda, bir til bilan boshqa til o'rtasida umumiylik va o'xshashlik mavjudligi bu tillarning qarindosh tillar ekanligi va bu tillar o'rtasida so'nggi paytlarda so'z almashinuvi sodir bo'lganligidan dalolat beradi. Bunday so'zlashuv hodisalarining tilda namoyon bo'lishi yoki bir tilning boshqa tilga ta'siri ikki xalqning hozirgi va o'tmishdagi til munosabatlaridan dalolat beradi.

Umuman olganda, hozirgi vaqtda Qoraqalpog'iston turkmanlari tilini o'rganish tillararo o'zaro bog'liqlik muammolarini hal etishda muhim ahamiyatga ega deb hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. Türkmen diliniň düşündirişli sözlügi. T. 1. a-ž. –Aşgabat: 2016.
2. Nartyýew N. Häzirki zaman türkmen dili (leksika). – Aşgabat: 2010.
3. Türkmen diliň tarixi. Begmyrat Bейисов. –Ашгабат: "Магарыф" 1992.
4. Magtymguly "Turan". –Aşgabat: 1991.
5. Аразкулыев С. Гарагалпагыстан АССР-ниң Дөрттул районындакы түркмен геплешиклери. –Ашгабат: 1961.
6. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб масалалари: ривожланиш истикболлари" мавзусидаги илмий-назарий анжуман материаллари.
7. Курбаниязов Г.А. Қорақалпоғистондаги лисоний вазият. –Тошкент: 2021.
8. Махмуд Қошғарий. (Туркий сўзлар девони),"Девон луғот ат-турк"1-жилд. 1960.
9. Рашид ад-Дин. Сборник летописей. -М. Л.: 1952, Т.1, кн. 1.
10. Баскаков Н.А Каракалпакский язык Т.1 -Москва: 1951. Т.1.
11. Курбониев Г. Қорақалпоғистон ахалисининг тили хақида. – Нукус: 2006.
12. Бондалетов В.Д. Социальная лингвистика. –М.: 1987.
13. Чоммадов О. Ата диалектиниң лексика-семантика айратынлыклари -Ашгабат: "Ылым", 1980.
14. Курбониев Г. Қорақалпоғистон таълим тизимида миллий тилларнинг роли. 2008.

REZYUME. Ushbu maqolada turkman tilining o'rganilishi tarixi va tilda yuzaga kelgan fonetik, morfologik o'zgarishlar, tilning bilingvizm masalalari hamda turkman tili bo'yicha bir nechta ishlar haqida to'xtalib o'tildi.

РЕЗЮМЕ. В этой статье рассматривается об истории изучения туркменского языка и фонетических, морфологических изменениях, происходящих в языке, вопросах билингвизма языка, а также о нескольких работах по туркменскому языку.

SUMMARY. This article describes the history of the study of the Turkmen language and phonetic, morphological changes occurring in the language, issues of bilingualism of the language, as well as several works on the Turkmen language.

СӨЗЛИК – РУЎХЫЙ ҚӘДИРИЯТ

У.Байқабылов – доцент

Шыршық мәмлекетлик педагогикалық университети

Т.Төрткулбаева – филология илимлари бойынша философия докторы, доцент

Әжонияз атындағы Нөкис мәмлекетлик педагогикалық институты

Таянч сўзлар: луғат, тиллараро муносабатлар, лексикография, лексик бирликлар, терминология.

Ключевые слова: лексика, межязыковые отношения, лексикография, лексические единицы, терминология.

Key words: vocabulary, interlingual relations, lexicography, lexical units, terminology.

Барлық илим тарауының жетіскенліктері де адам өмірінің, жәмийет мүтәжліктерін қандыруға бағдарланғанлығы хақықат.

Әйемги сөзлик өзге тиллердің сөзлерін түсіндіріу мақсетінде ерте заманларда дөрелген. Грекияда б.э.б. V әсирде, Хиндстанда б.э. XII әсирде ("Хема-чандра"), Ресейде XIII әсирден баслап сөзликлер дүзилген. Түркий халықларының дәслепки сөзлиги XI әсирде жазылған Махмуд Қашғарийдің "Девони луғат-ат-турк" мийнети болып есапланады. Кейін ала еки тиллик ямаса көп тиллик сөзликлер дөрелди. Мысалы, араб-парсы, түрк - монгол сөзлерін салыстыруу бойынша Замахшарийдың "Мукаддимат әл-адаб" сөзлиги (XII әсир), Әбу Хайянның "Китаб әл-идрак Ли-Лисан әл-атрак" атлы қыпшақ тилинің грамматикасы менен сөзлерининг топламы (XIV әсир), Жамал әд-Диннің араб-қыпшақ сөзлиги сыпатында дүзилген "Буғат әл-муштақ" (XV әсир) мийнетлери. Қазақ тилинің сөзликлери 1860-жыллардан баслап жарық көре баслады. Сөзликтің жәмийетлик хызметинің мазмунлы өзгешелиги: тийкаргы дереги сыпатында тез

мағлыұмат алыұға болады; сөзлердің мәніси менен дурыс колланылыұы хақында нормативлик бағдар береді хәм т.б. Сөзлик дүзиудің усылын, теориясы менен тәжірийбесин, технологиясын лексикография тарауы изертлейди [1].

Деректаныу илимлерининг мақсети адамзаттың материаллык мүтәжликтерін тәмийинлеп, турмыс тиришилигин жеңиллетиу менен дәўирге сәйкес талапларын қанааатландыруу болса, гуманитар илимлердің, соның ишинде тил билиминің нәтижелери усы тарауға байланыслы жаңалықлар ашып, илимий бағдарларды қәлиплестириу менен, тилди үйретиу методикасына тийкар салыу менен бирге, белгили бир халықтың илими тәбиятынан мағлыұмат бериуши сөзлик қорының тарийхын, бүгинги-кешегі өзгерислерин өлшеп ғана қоймастан, сол халықтың этнолингвистикалық қәдириятларын, руұхый байлығын таныу менен танытыуға, көзқараслары позициялары хәм философиялық ой-пикирлерин әўладтан-әўладқа жеткеріуіге хызмет етеди. Бул хызметти орынлауда, әсиресе, тил илиминің